

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLAR AKADEMIYASI

ELMURODOV BOBUR UTKIROVICH

**“JASORAT” FENOMENINI SHAKLLANTIRISHDA O‘ZBEK EPIK
DOSTONLARI: STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL YONDASHUV**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Elmurodov Bobur Utkirovich

“Jasorat” fenomenini shakllantirishda o‘zbek epik dostonlari:
strukturaviy-funksional yondashuv 3

Элмуродов Бобур Уткирович

Узбекские эпические дастаны в формировании феномена «мужества»:
структурно-функциональный подход 21

Elmurodov Bobur Utkirovich

Uzbek epic dastans in the formation of the phenomenon of “courage”:
a structural-functional approach 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLAR AKADEMIYASI

ELMURODOV BOBUR UTKIROVICH

**“JASORAT” FENOMENINI SHAKLLANTIRISHDA O‘ZBEK EPIK
DOSTONLARI: STRUKTURAVIY-FUNKSIONAL YONDASHUV**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3220 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tai.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rahmonov Nasimxon Asqarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umurzoq Abdurazzoqovich
filologiya fanlari doktori, professor
Sayitqulov Ilhom Abdusalamovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 28 avgust kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi 5-uy. Tel.: (71) 233-36-50; fax: (71) 233-71-44; e-mail: uztafi@academi.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (42 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi 13-uy. Tel.: (71) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14 avgust" da tarqatildi.
(2024-yil 14-avgust dagi 4-raqamli reyestr bayonnomasi).



J.S. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

B.T. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.f.d.

Sh.G. Turdimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida har bir millatning mifologiyasi, tarixi va adabiyoti, an'ana va qadriyatlari, xalq ruhiyatining qadimiy ohanglari, o'zligi va ijro xususiyatlarini yoritish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu meros xalqlarning milliylik asosini tashkil etib, jasorat va qahramonlik namunalari jamiyat a'zolari o'rtasida g'urur va birlamlik tuyg'usini uyg'otadi, millat va elatlarning umumiy birlashuviga poydevor bo'ladi. Bu esa folklorshunoslikda qahramonlik va jangnoma eposlarining chuqur o'rganilishi masalalari yanada dolzarb ekanini ko'rsatmoqda.

Dunyo folklorshunosligida eposlarni har tomonlama tadqiq etish ishlari XVIII asrdan buyon uzluksiz davom etib kelayotir. F. Buslayev, A. Afanasyev, A. Veselovskiy va ularning izdoshlari olib borgan syujet va motivlar tadqiqiga oid nazariy xulosalari bugungi kunda ham dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, qahramonlik dostonlari obrazlarining faoliyatidagi umumiy jihatlar dunyo folklorshunosligini yaxlit o'rganishga yo'l ochib beradi. Qahramonlarning xulq-atvoridagi o'xshash voqealar va tasvirlar ilmiy izlanishlar ko'lamini kelgusida kengaytirish zaruratini talab etadi. Dostonlar va tarixiy asarlardagi syujet va qahramonlar tasvirida analogiya ham shunchaki tasodif emas, balki genetik birlikka ishora qiluvchi omillar ekani tadqiqotlar jarayonida oydinlashadi. Doston qahramonlari faoliyatining hayotiyliigi va tarixiy qahramonlar bilan ko'p hollarda uyg'unligi fikrimizga dalildir. Shuningdek, jangovarlik, vatanparvarlik g'oyalari folklorshunoslikda qahramonlarning muhim sifatleri bo'lishi bilan birga jasorat fenomenining omili ekani ayonlashadi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar qatori Qurolli Kuchlarimiz saflarini har tomonlama yetuk kadrlar bilan to'ldirish, harbiy xizmatchilar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, ularni tarixiy qahramonlarimiz jasorati, o'zbek harbiy jang san'ati bilan yaqindan tanishtirish kabi vazifalar kun tartibiga chiqdi. "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadrlidir¹. Shu nuqtayi nazardan o'zbek folklorshunosligidagi noyob madaniy elementlarni tiklash, xalq og'zaki ijodining tashuvchisi bo'lgan bebaho turmush tarzimiz va vatanparvarlik tamoyillarini ommalashtirish, yangicha texnologiya vositalari orqali folklor namunalari keng yoyish, xalq og'zaki ijodini zamonaviy ta'limga integratsiyalash, yosh avlod o'rtasida milliy g'urur va o'zlikni anglashda epos namunalari keng targ'ib qilish kabi masalalar dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish ishlari "Yuksak jangovar ruh – askarning yengilmas kuchi, armiyaning qudratidir!" degan konseptual g'oya asos qilib olindi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019-yil 7-aprel. – 68-son.

Shuningdek, 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu dissertatsiya ishida “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” jangnoma dostonlari va bir qancha qahramonlik eposlari, shuningdek, turli tarixiy manbalar tahlilga tortildi. Shu kungacha “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” dostonlari haqida olimlarimiz tomonidan ayrim tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, aynan o‘zbek dostonlaridagi jang lavhalari tahlili va talqinlari, qahramonlarda jasorat fenomenining shakllanishi borasidagi ilmiy izlanishlar aytarli olib borilmagan.

Venger tarixchisi Herman Vamberi “Yusuf bilan Ahmad” dostonidan ayrim parchalarni nemis tiliga tarjima qilib, 1867-yili “Chig‘atoy tili darsligi” nomli to‘plamga kiritgan edi. Dostonning o‘zbekcha-nemischa nashri 1911-yil to‘liq holda Budapeshtda chop etiladi².

Turk tadqiqotchisi Merem Dinchning “Özbek destanlarında savaş”³ (“O‘zbek dostonlarida jang”) tadqiqot ishida ham bir nechta o‘zbek dostonlari qatorida “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” dostonlaridagi jang motivlari tadqiq etilgan.

H. Zarifov, T. Mirzayev, M.Saidov, K. Imomov, M. Afzalov, A. Musaqulov, M. Jo‘rayev, Sh. Turdimov, J. Eshonqulov⁴ kabi olimlar o‘zbek dostonlarining tarkibiy tuzilishi, mifologik asoslari, badiiy talqinlari, turli variantlari, genezisi kabi g‘oyat dolzarb va katta ilmiy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

V.M. Jirmunskiy, H.T. Zarifov, M. Saidov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, S. Ro‘zimboyevlarning ayrim maqola va risolalarida “Yusufbek bilan Ahmadbek” dostoni haqida u yoki bu darajada mulohazalar uchrasa-da, maxsus monografik planda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, bu dostonning xalq kitobi variantlari, tarqalish doirasi negizlari borasida ma’lumotlar juda kam.

Qayd etish kerakki, V.M. Jirmunskiy va H.T. Zarifovlarning “O‘zbek xalq qahramonlik eposi”da dostonning yaratilish tarixi, qahramonlari, tarkibiy qurilishi

² Vambery H. Cagataische studien. – Leipsig, 1867. – P. 94–114.

³ Dinç M. Özbek destanlarında savaş. Magistrlik ishi. – Erzurum, 2021. – S. 246.

⁴ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 304 б.; Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – 172 б.; Турдимов Ш. Гўрўғли дostonларининг генезис ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 239 б.; Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 172 б.; Эшонқул Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – 154 б.

haqida ma'lumot berilar ekan, kitobning "Yusuf va Ahmad" jangnoma qissasi deb nomlanuvchi qismida mualliflar ushbu doston haqida maxsus to'xtalib o'tishadi⁵.

Folklorshunos Rahimboy Jumaniyozovning mustaqilligimizning ilk yillaridagi "Yusufbek va Ahmadbek" dostoniga bag'ishlangan "Dong qozongan doston" monografiyasi⁶ bu boradagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jasorat" fenomenini shakllantirishda o'zbek epik dostonlari: strukturaviy-funksional yondashuv" mavzusida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi dostonlardagi jang lavhalari, qahramonlik, vatanparvarlik motivlari asoslarini tarixiy voqealarga bog'liq holda tahlil qilish, xususan, "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek" jangnoma dostonlaridagi shaxs ma'naviyati, jangovarlik salohiyati, jasorat va jang motivi ildizlarini dalillashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jangnoma dostonlarda aks etgan harbiy-vatanparvarlik ruhi va g'oyalarini ilmiy asoslarda Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari ongiga singdirish;

jasorat fenomenini strukturaviy-funksional tahlil qilish asosida shaxsiy tarkib dunyoqarashida jasorat va vatanparvarlik aqidalarini shakllantirishga erishish;

har bir doston qahramoniga individual yondashuv asosida jasorat fenomeni-ning nazariy va amaliy zaruratini dalillash va tadqiqot obyektiga aylantirish;

harbiy oliy o'quv yurtlarining ta'lim tizimida jangnoma va qahramonlik dostonlaridagi alplik, botirlik, kurashuvchanlik fazilatlarini o'quv mashg'ulotlari davomida singdirib borish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek" jangnoma eposlari, qahramonlik dostonlari, jangovarlik aks etgan ayrim manbalar belgilandi.

Tadqiqotning predmetini xalq dostonlaridagi jasorat va vatanparvarlikka oid mexanizmlar, harbiy san'at, jangovar ruh, jasorat va jang motivlari, harbiy terminlar etimologiyasi asosida tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matnlarni tahlil qilish, qiyosiy-tarixiy, strukturaviy-funksional, so'rov usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Alibek bilan Bolibek", "Yusuf va Ahmad" kabi o'zbek xalq eposlari misolida o'zbek xalqining ruhiyatidagi sobitlik, metin iroda, yuksak ma'naviyat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, erk, birodarlik, dushmanga nafrat g'oyalarini chuqur singdirish orqali bugungi armiyamizning ma'naviy qiyofasini yanada to'laqonli yuzaga chiqarish zarurati dalillangan;

o'zbek xalq eposlari obrazlari, qadimgi turkiy yodgorliklardagi qahramonlarning jasorati tasviridagi umumiylik ularning xulq-atvori bilan bog'liq ekani, alplikning shakllanish bosqichlari, qahramonlik va dovyuraklik, strategiya va jang motivi kabi omillar bu xususiyatlarning shakllanishida asos bo'lgani isbotlangan;

⁵ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: Гослитиздат, 1947. – С. 518.

⁶ Жуманиёзов Р. Донг қозонган дoston. – Тошкент: Халқ мероси, 1993. – 92 б.

folklor asarlaridagi harbiy taktika, jang san'ati, dushmanga qarshi kurash usullari jangovar kuch, qurollardan foydalanish mahoratiga oid lavhalar va detallar qahramonlik dostonlarida jasorat fenomenini yuzaga keltirishi asoslangan;

vatanparvarlik, mardlik, jangovar birodarlik qoidalariga rioya qilish an'anasi dostonlarning bosh qahramonlari, sarkardalar obrazida mujassamlashgani jangovarlik faoliyatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar ekani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qahramonlar jasoratini ulug'lovchi xalq dostonlarining turli variantlari, yozma va og'zaki versiyalaridagi farqli jihatlar tizimli ravishda umumlashtirilgan;

jasorat fenomeni bugungi o'zbek armiyasining har bir jangchisiga xosligi muqarrar bo'lgan muqim (bazaviy) kompetensiya sifatida singdirilishi lozimligi qiyosiy tahlillarda asoslangan;

jangovar madaniyat haqidagi tushunchalarning to'liq rivojlanish dinamikasi yaxlit va ko'p qirrali tarzda o'rganilib, mavzuga tarixiy va folklor manbalarning qiyosiy hamda strukturaviy-funksional tahlili ochib berilgan;

qahramonlarda vatanparvarlik ruhi, axloqiy qiyofa, jangovar vazifalarni bajarishdagi ishonch va e'tiqod masalalari misollar asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining tarixiy va nazariy jihatlari tahlil qilingani, O'zbekiston milliy armiyasining jangovar va harbiy-vatanparvarlik an'analari dostonlar misolida umumlashtirilgani, sohaga doir ilmiy adabiyotlar va ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlardan foydalanilgani, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, folklor va tarixiy manbalardagi jasorat motivi ilk bor Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari jangovar ruhini yanada mustahkamlashda muhim o'rin tutishi asoslanib, kelgusida "jasorat", "qahramonlarning ulg'ayish dinamikasi", "harbiy atamalarning tarixi" kabi mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borishga zamin hozirlaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan harbiy xizmatchilarning hayotiy va kasbiy faoliyatida jangnoma dostonlarning o'rni va ahamiyatini oshirish, qo'llanma va darsliklar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Jasorat" fenomenini shakllantirishda o'zbek epik dostonlari: strukturaviy-funksional yondashuv mavzusida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

"Alibek bilan Bolibek", "Yusuf va Ahmad" kabi o'zbek xalq eposlari misolida o'zbek xalqining qat'iy ruhiyati, irodasi, yuksak ma'naviyati, tafakkuri, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, erk, birodarlik, dushmanga nafrat g'oyalarini chuqur singdirish orqali zamonaviy armiyamizning ma'naviy qiyofasini to'laqonli yuzaga chiqarish imkoniyati dalillanganligiga bag'ishlangan natijalar 2018–2020-yillarda bajarilgan PZ-20170927147 raqamli "Qadimgi davrlardan XIII asrgacha bo'lgan turkiy yozma manbalar tadqiqi" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 30-apreldagi 04/1-1117-ma'lumotnomasi). Natijada turkiy manbalarda qahramonlik timsollari va jang

motivi bilan epik dostonlardagi qahramonlik unsurlari va urush sahnalari o‘zaro uyg‘unligini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

o‘zbek xalq eposlari qadimgi turkiy yodgorliklardagi qahramonlarning jasorati ularning xulq-atvori bilan bog‘liq ekanligi, alplikning shakllanish bosqichlari, qahramonlik va dovyuraklik, strategiya va jang motivi kabi omillar bu xususiyatlarning shakllanishida asos bo‘lganligi isbotlanganligi hamda folklor asarlaridagi harbiy taktika, jang san’ati, dushmanga qarshi kurash usullari jangovar kuch, qurollardan foydalanish mahorati bilan bog‘liq lavhalar va detallar qahramonlik dostonlarida jasorat fenomenini yuzaga keltirishi asoslangan xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurtining o‘quv jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 26-sentyabrdagi 10/1922-son ma’lumotnomasi). Natijada “Yusuf va Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” dostonlaridagi qahramonlarning ulg‘ayish dinamikasi, jasorat ko‘rsatish tadriji kursantlar faoliyatiga tatbiq etilganda ijobiy yutuqlarga erishilgan;

vatanparvarlik, mardlik, jangovar birodarlik qoidalariga rioya qilish an’anasi dostonlarning bosh qahramonlari, sarkardalar obrazida mujassamlashgani jangovarlik faoliyatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar ekani dalillanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Mavzu”, “Ochiq dars” ko‘rsatuvlarida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-sentyabrdagi 01-14/257-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida vatan himoyasiga mas’uliyat, mardlik va jasorat tuyg‘ularining ahamiyati keng tomoshabinlar ommasiga yetazilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilinib, ilmiy jamoatchilikka yetkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy mamlakatlarning nufuzli jurnallarida nashr etilgan. Shu bilan birga, ilmiy to‘plamlarda 2 ta maqola nashr etilgan. Bundan tashqari, dissertatsiya ishi natijalari 4 ta, shundan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi **143** sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy, amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy qismlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jasorat” fenomenining dostonlarda aks etish tadriji**” deb nomlanadi. Bobning birinchi **“Dostonlarda jasorat tushunchasining ifodasi hamda ularning evolyutsiyasi”** qismida jasorat fenomenining tarixiy tipologiyasi, funksional xususiyatlarini tizimli davriylashtirilishi, jasorat fenomenining vatanparvarlik tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligi, “Tunyuquq”, “Bilga xoqon” bitiklari, “Devonu lug‘ati-t-turk”, “Qutadg‘u bilig” asarlaridagi jasorat fenomeni, “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” jangnoma dostonlarining turli davrlarga oid qo‘lyozma va toshbosma nusxalari, ularning syujet liniyalari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar haqida so‘z boradi.

Folklorshunos Rahimboy Jumaniyozov mazkur dostonlarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini tadqiq etar ekan, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida “Yusuf-Ahmad”, “Yusufbek va Ahmadbek” “Yusufbek”, “Qissayi Yusufbek” kabi nomlar bilan qayd etilgan 10 ta qo‘lyozma nusxa mavjudligini, ularning eng qadimiysi hijriy 1213-yilda yozib tamomlangan 139-inventar raqamli “Yusuf-Ahmad” nomli qo‘lyozma⁷ ekanini ta’kidlab o‘tadi. Olimning aytishicha, ushbu asar o‘tmish davrlarda turkman, ozarbayjon, tojik, uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, tatar va afg‘on xalqlarining ham sevimli kitoblaridan biri sanalgan.

Dostonning baxshi variantida og‘zaki nutqqa xos xususiyatlar – qisqalik, fikrni lo‘nda ifodalash, mo‘jaz uslub ustunlik qilsa, yozma variantlarida kitobiy iboralar bilan tuzilgan jumlar yetakchilik qiladi. Shuningdek, og‘zaki nusxalarda to‘rtlik va ikkilik shakllari – mubolag‘a, o‘xshatish, sifatlash kabi an‘naviy badiiy tasvir vositalari hamda epik qolip, turg‘un birikmalar uchraydi.

Yozma variantlarda esa mumtoz she‘riyatimizning turli janrlarini qo‘llash, Mashrab, Maxtumquli, Berdaq singari xalqchil shoirlarning mashhur she‘rlarini qisman o‘zgartirishlar bilan qahramonlar nutqiga singdirib yuborish, turli san‘atlarni qo‘llash ustunlik qiladi.

“Yusuf bilan Ahmad” hamda uning bevosita davomi hisoblangan “Alibek bilan Bolibek” dostoni faqat Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan bo‘lsa-da, folklorshunos olimlarning qayd etishlaricha, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoir va boshqa baxshilar repertuarida ham mazkur doston mavjud bo‘lgan.

Ushbu bobda dostonidagi tarixiylik elementlar o‘rganilib, eroniylar bilan xorazmliklar orasidagi urushlar, xususan, Shoh Abbos, Nodirshoh, Shoh Ismoil, Tahmasp I kabi hukmdorlarning xalq ustiga kulfatlar yog‘dirgani haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Dostonidagi voqealar XVI asr Xorazm tarixidagi siyosiy-harbiy jarayonlarga ko‘p jihatlari bilan yaqin kelishi, xususan, Nodirbek sulton, Sheralixon, Kunxon, Oyxon kabi obrazlar Xorazmga qarashli viloyatlarning xonlari tipida, Xorazm va Eronning Urganch, Xiva, Vazir, Mang‘iloq, Isfahon, Xuroson kabi shahar va qishloqlarining nomlari ham aks etganini ko‘rish mumkin.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Dostonlarda jasorat – xulq namunasi bir ko‘rinishi sifatida”** deb nomlangan. Jasorat fenomeni xulq namunasi sifatida individual va guruh tarzida namoyon bo‘lar ekan, dostonlarning syujeti, genezisi, obrazlar tizimi, tarkibi, kompozitsiyasi kabi xususiyatlarining Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari ma‘naviy-axloqiy ruhiyatiga ta’siri masalalari bosh planga ko‘tariladi.

⁷ Жуманиёзов Р. Донг қозонган дoston. – Тошкент: Халқ мероси, 1993. – Б. 9.

Jangnoma dostonlarining tarixiy ildizlari qahramonlik ertaklarga borib taqaladi. Dastlab qurolli kurash tajribasi, harbiy tayyorgarlik va tarbiya qoidalari og‘zaki ko‘rinishdagi cho‘pchak, afsonalar tipida avloddan avlodga o‘tib, rivojlanib borgan. Bora-bora ular sayqallanib, voqealarning syujet va kompozitsiyalari kengayib, folklor dostonlari sifatida shakllangan.

Ushbu bobda dostondagi ibtidoiy, dualistik, fetishistik elementlar, o‘g‘uz yodnomalari, xususan, “Yusuf bilan Ahmad”ning “Kitobi Dadam Qurqut” rivoyatlari bilan kompozitsion yaqinligi, “Kultegin”, “Yenisey yodgorliklari”, “O‘g‘uznoma”, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Alibek va Bolibek” va qator manbalardagi syujet, motiv va obrazlar tipologiyasidagi o‘xshashliklar tahlilga tortiladi.

A.M. Zolotaryov Janubiy Amerika xalqlari orasida yoyilgan egizaklar haqidagi miflarni tekshira turib, ularga xos qator funksiyalarni sanab ko‘rsatadi. “Janubiy Amerika miflarida egizaklarning tug‘ilishi onaning o‘limi bilan bog‘liq”⁸, deb yozadi u. Shu faktga tayangan holda dostonning “Yusufbek va Ahmadbek” variantiga diqqat qiladigan bo‘lsak, ular orasidagi o‘zaro o‘xshashlikni sezamiz. Dostonda Yusufbekning onasi La‘lixon oyim Ahmadni ham (onasi o‘lganligi tufayli) emizadi, natijada ular emikdosh bo‘lishadi.

Bu ikki dostonda ism qo‘yish, tush motivi, epik qoliplar, qurollanish, “alplik tizimi”ga ham keng urg‘u beriladi⁹.

Shuningdek, qahramonlarning og‘ir ahvolga tushib qolishini keltirib chiqaruvchi omillar, “Yusuf bilan Ahmad” dostonida Masal yurtidan badrak Mirzo Mamad Xorazmga jabrdiyda qiyofasida kelgani, ularning hiyla bilan asir olinishi, keksa Bo‘zo‘g‘lonxon sinalmagan otga yaqin yo‘lamaslikni maslahat berishi (“Ko‘zlari oladir, o‘ldir shu qulni”¹⁰) aks etadi:

*Ko‘p azoblar berar sening o‘zingga,
Qo‘rg‘oshinlar qo‘yar ikki ko‘zingga,
Kishan urib, kunda solar tizingga,
Yusuf turur tushda ko‘rgan ahvoling.
Xonumoning olov ichra kuydirib,
Ko‘chalaring o‘lik birla to‘ldirib,
Burning kesib, o‘zingizga yedirib,
Yusuf turur tushda ko‘rgan ahvoling.* (“Yusuf bilan Ahmad”. 42-b.).

Shuningdek, dostonlarda takror uchraydigan qusurlar, xususan, g‘aflatda qolish (“...Bulardi yazidlar (dushmanlar) har vaqt uyqusida ushlar erkan. Bular bir yotsa, uch kecha-kunduz yotar erkan, bir yursa uch shabro‘z yurar erkan...”), “Kultegin” bitigida Bilga xoqon qo‘shinining qirqiz va turgashlar bilan bo‘lgan jang tasvirida ham uyquda bosish (“O‘l sub qo‘di bardimiz, sanag‘ali tushurtimiz, atig‘ iqa bayur ertimiz. Kun uama, tun uama yelu bardimiz. Qirqizig‘ uqa (uyquda) basdimiz”¹¹), Yusufbek bilan Ahmadbek ayyor badrakning so‘ziga ishonib, asirga tushishi, mast qiluvchi ichimliklar (“Qutadg‘u bilig”da: “Ne-ne dono va aql-idrokli

⁸ Золотарёв А. М. Родовой строй и первобытная мифология. – М.: Наука, 1964. – С. 183.

⁹ Жўраев М., Эшонкулов Ж. Фольклоршуносликка кириш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2017. – Б. 103.

¹⁰ Юсуф билан Ахмад / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 42.

¹¹ Содиков Қ. Тошни тирилтирган битиклар / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, – Тошкент, 2012 йил, 2-сон. – Б. 4.

kishilar ham may ichganidan so‘ng tubanlik qilishi, nojo‘yalik sari yuz burishi mumkin. Ne-ne andishali, fe‘li soz kishilar ham boshlarini mayga suqqanlaridan so‘ng o‘z ishlarini buzishgan. Uyat, andisha, zakovat, aql-idrok singari qanchadan qancha yaxshi fazilatlar nopoklarda mayga qo‘shilib ketadi”¹²), “Kuntug‘mish”da karvonboshi Azbarxo‘ja Kuntug‘mishga kuchi yetmasligini bilib, unga haddan ortiq may ichirib, karaxt qilishi, bu qilmishi uchun To‘ra Xolbeka va ikki farzandidan ayrilib, uzoq mashaqqatlarga duch kelishi kabi ko‘plab unsurlar tasvirlanadi.

Bundan tashqari, ushbu faslda dostonning qadimiyligini asoslovchi jonli va jonsiz tabiatga murojaat (Yusuf va Ahmadning Asqar, Polopon tog‘lariga tutqunlikdan qaytishda esa Gurgon daryosiga qarata murojaatlari, zindonda ekanida qaldirg‘och va turnalarga nolalari), homiy va pirlar ko‘magida bo‘lishi ko‘zga tashlanadi.

Jangnoma asar qahramonlarining qurollanishi (Ashurbek sardorning qirq yigiti bilan jangga otlanayotgani: “...Otlarning chirg‘i, jahaldirik, egarini bosib, avval ayilini tortdi, ko‘rpachani solib, bo‘ktarib, o‘xshatib, zertang-zabartang qilib, ayil-pushtanini tortdi. Ot-otiga minib, sovut, choroyna, qalqonni eyniga olib, otlarni shaylab, qirq ikki nayzaga har rang salladan to‘g‘ qilib boyladi. G‘animning sallotboshilari: “Qirq ikki tug‘ keb tikildi, Urganchdan, Xorazmdan, o‘zbaklardan yomon og‘ir lashkar yetdi”, dedi. Joni hurkib ketdi. “Hamma yerni tug‘ bosib ketdi”, – degan ko‘p bo‘ldi¹³) kabi holatlar tahlil qilinadi.

Birinchi bobning 3-fasli **“Folklor va tarixiy manbalarda harbiy taktika, jangovar kuch sifatleri”** deb nomlanib, bunda asrlar osha sarkardalarning jangda g‘alaba qozonish qo‘shin soniga emas, kuchli taktik usullar, harbiy hiylalar bilan bog‘liq ekani, shuning uchun har bir qo‘mondon jang uchun strategik qulay makon, ob-havo, razvedka, chalg‘ituvchi harbiy usullarga alohida e‘tibor qaratgani dostonlar va turli manbalar asosida ochib beriladi.

Xalq eposlarida dushmanga kutilmaganda zarba berib, uni vahimaga soluvchi maxsus kuchlar borki, bunday maxsus guruhlar “shabgir”lar deb atalgan. Ular kechasi vahimali hujumlar tashkil qilib, son jihatdan ustun g‘animni ham yer tishlatishgan.

Alpomish tilidan aytilgan ushbu misralar buning dalilidir:

*Bedovlarga qamchi chatib,
Oqshom yurar shabgir tortib,
Jo‘nadi qirq ikki sardor,
Har qaysi misli ajdaho.*

“Yusuf bilan Ahmad” dostonining Muhammad Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan hamda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan Hodi Zarif yozib olgan variantida “shabgir” so‘zi qorovul, qo‘riqchi ma’nosida keladi (Eralixon podsho Tolliboyning oyog‘idan boshigacha qaradi. Shu davlatning, amalning uddasidan chiqmaydigan. Kel, buning o‘ziga yarasha amal beray, bir jezzam keldi. Dingillavich, qora ko‘rsa, hurkib o‘tmaydigan, achchig‘i kelsa bari odamni tishlaydigan, po‘stinning junini ko‘rsa hurkib, kamar bo‘p olib qochadigan shunday bir cho‘bir berdi, bir katta junli telpak berdi, bittagina shopcha berdi, qashqaldoqning terisidan bo‘lgan dobil berdi,

¹² To‘xliyev B. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – B. 86.

¹³ Юсуф билан Аҳмад / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жылдик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 103.

qirg tanga pul berdi. – Seni shabgir qildim. Yusuf bilan Ahmadbekka tong otguncha shu shabgirlik qilasan, – dedi¹⁴).

“Alibek bilan Bolibek”da shahzodaning qo‘shini son jihatdan oz bo‘lsa-da, tog‘dan quyuq va ulkan chang bilan tushgani dushmanni benihoya qo‘rquvga soladi:

“Odilbek sardor Mirzapo‘latning oldiga borib, “Sarkarda, munov changni ko‘rdingizmi” – deb bir so‘z aytib turibdi:

O‘zbek lashkarining bari bo‘ridir,

Maydonga kirganda erning eridir.

Endi tanang suvsiz cho‘lda chiriydi,

Bizning qo‘shin bevaqt kelgan o‘xshaydi¹⁵.

Shunda Mirzapo‘lat Odilbek sardorga o‘zbeklarni yaxshi bilmasligi, ular kelsa qo‘shinning soniga qarab o‘tirmasligi, qo‘rquv bilmasligini, yo o‘lishi, yo o‘ldirishini aytadi.

“Qutadg‘u bilig”da esa ayg‘oqchi, saf, razvedka bo‘linmasi Tutg‘oq¹⁶, lashkarning oldingi qismida boruvchi bo‘lagi, soqchi, kuzatuvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, ayg‘oqchi razvedkachilar otryadi yezak (“Qutadg‘u bilig”. 183-b.) deb ataladi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Doston qahramonlarining jangovarligini namoyon etishda faol vositalar”** bo‘lib, birinchi fasl **“Dostonlarda “jasorat” fenomeni: shakllanish va rivojlanish dinamikasi”** deb nomlanadi.

Mazkur bobda jasorat ruhidagi ayrim ertak va dostonlar kompozitsiyasi misolida qahramonlarning ulg‘ayish davriyligi, unga ta‘sir etuvchi omillar, qahramonlik maqomi bosqichlari qiyosiy o‘rganiladi.

“Kenja botir”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Ziyod botir”, “Qilich botir”, “Botir mergan va chaqimchi”, “Olmos botir”, “Bektemir botir”, “Bo‘zchi botir”, “Xamir Botir”, “Qiron botir” kabi ertaklar misolida mardlik, jasorat, har qanday xatarlarni yengib o‘tish, jangovarlik, saxiylik, to‘g‘rilik elementlari; “Pahlavon Rustam”, “Erkenja”, “Quyosh yerining pahlavoni”, “Shamshirboz”, “Bunyod polvon”, “Ermana mergan”, “Qilichqora”, “Mayizpolvon” kabilarda bilagi zo‘r botirlar sarguzashtlari, to‘siq va dushman hiylalari tahlil etildi.

“Pahlavon Rustam”, “Birlashgan o‘zar”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Egri bilan To‘g‘ri”, “Ona yer farzandi” ertaklarida vatanparvarlik va dovyuraklikdan tashqari Vatan uchun jon fido qilish kabi g‘oyalar yetakchilik qiladi.

“To‘lg‘onoy” ertagi o‘zining hayotiyliigi va kulminatsion nuqtalarga boyligi bilan hatto jangnoma dostonlarga ancha yaqin keladi. Ertakning boshlanishi O‘ratepa begi xalqdan oq uylikka qoracherik – odam so‘ragani, ammo hech kimsadan darak bo‘lmagani, Nazar degan kambag‘al kimsa bu xabarni eshitib bola-chaqasi bilan bormoqchi bo‘lgani, ammo To‘lg‘onoyning yoshlikdan unashtirilgan Pardavoy ismli yigitga vafosi tufayli erkak libosida urushga yo‘l olishi, “To‘lg‘on”ning bundagi azoblari, qahramonliklari hikoya qilinadi.

Ertakda Barot polvon bilan Ollonazar polvonlarning gladiatorlarga o‘xshab jang qilishi, xususan, “Qilich nayza shirqillashib, Ot qo‘yar maydon ichinda”,

¹⁴ Юсуф билан Аҳмад / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 39.

¹⁵ Юсуф билан Аҳмад / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 416.

¹⁶ То‘хлиев В. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. – Toshkent: Cho‘lpon, 2007. – B. 183.

“Mard o‘g‘illarning bo‘lar nomusi, ori”, “Erisin, tog‘larning qori erisin, Yer ostida dushman tani chirisin”, kabi misralar “Alpomish”, “Rustamxon” kabi doston qahramonlarining jang uslubini yodga soladi.

Shuningdek, qahramonlarning ilk jasoratlarini namoyon qilishi, “Dadam Qo‘rqut”, “Alpomish”, “Manas”, “Go‘ro‘g‘li”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek” dostonlari misolida tahlil qilinadi.

Alpomish bobosi Alpinbiydan qolgan o‘n to‘rt botmonlik yoyni yetti yoshida ko‘taradi:

“...Shunda Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, yetti yashar bola ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga ketdi”¹⁷.

Qirg‘iz eposi “Manas”da esa voqealar o‘zgacha ruhda kechadi. Bolakay uch yoshga to‘lganda ho‘kizni shoxini sindirib, daraxtlarni ildizi bilan qo‘porib tashlaydi. 7 yoshda bir qo‘zining go‘shiga to‘ymaydi. 8 yoshida savdogarlarning buyumlarini tortib olib, bolalarga bo‘lib beradigan qiliq chiqardi. Manas o‘zining birinchi qahramonligini to‘qqiz yoshida, ya‘ni yurtiga bostirib kelgan Dovdur zo‘ravon Jo‘laydov bilan Qobon alpni kurashda yengganida ko‘rsatadi¹⁸.

“Go‘ro‘g‘li”da Go‘ro‘g‘li to‘qqiz yoshida Hakimbek kabi hech kim ko‘tara olmagan yoyni dast ko‘tarib, yetti filga qarab o‘q otadi. Natijada o‘q yetti filni ham teshib o‘tadi.

Ergash Jumanbulbul tomonidan kuylagan “Qunduz bilan Yulduz” dostoni “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub bo‘lib, unda aytilishicha, Go‘ro‘g‘lining o‘n yashar nevarasi bo‘lgan Nurali yetti yashar ukasi Ravshan bilan otasi Avazxonni dushmanlar changalidan qutqarib qolishadi¹⁹.

Shuni ta‘kidlash joizki, qahramonning ilk jasorati qadimgi eposdan kelayotgan an‘anaviy motivdir. Buning dastlabki ko‘rinishlari “Dadam Qo‘rqut” kitobida ham berilgan. Bu qadimiy yodgorlikda tasvirlanishicha, yigitlarga ilk jasorat ko‘rsatib, o‘zini tanitmaguncha hatto ism ham berishmagan. Bu eposdagi qahramon Bamsi o‘n besh yoshida birinchi bor o‘z jasoratini namoyon qiladi. Mo‘g‘ul eposida mashhur bo‘lgan Jang‘ar hatto ikki yoshida otga minib, uch yoshida dushmanni mahv qiladi²⁰.

“Yusuf bilan Ahmad” dostonida esa aka-ukalar butun Isfahon yurtining yigitlarini urush-savash va botirlikka o‘rgatish bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Bu manzara ularning: “Yetti yoshdan beri savash qilarman...”²¹ degan tarjimayi hollarida ham ayon bo‘ladi. Ayniqsa, 7 yoshda maktabga borib, savodi chiqqan bolaning harb ishidan bexabarligi otalarni nomusga qo‘yishi (Bo‘zo‘g‘lon:

¹⁷ Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Зарифов ва Т. Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 17.

¹⁸ Raximova S.A. Epos qahramonining ilk hayoti bilan bog‘liq motivlar // Academic research in educational sciences. – Toshkent, 2022. – № 4. – В. 949.

¹⁹ Қундуз билан Юлдуз // Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари. III том. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 238.

²⁰ Raximova S.A. Epos qahramonining ilk hayoti bilan bog‘liq motivlar // Academic research in educational sciences. – Toshkent, 2022. – № 4. – В. 957.

²¹ Алибек билан Болибек / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Еттинчи жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 45.

“Endi bularga sipohilik o‘rgatinglar: ot chopmoq, o‘q otmoq, sipar tortmoq, qilich chopmoq, ham nayzadastlik, kirbastlik, surishbozliq, ko‘pkaritozlik. Endi shu mullalig‘i bo‘ladi”²²), jasorat dinamikasini uyg‘onishi aynan 14 yoshga to‘g‘ri kelishi (“Kuntug‘mish o‘n to‘rtga kirguncha ish-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o‘n to‘rt dan o‘tgandan keyin, sipohilik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko‘pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga qo‘shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh toqqa, goh ovga shikor qilib yurar edi”²³), botirlik maqomi, jang usullari, g‘aflat (“Uyquda boyladi nozik qo‘limni...”²⁴) lavhalari turli misollar orqali asoslanadi.

Dostonlardagi qahramonning rivojlanish dinamikasiga e‘tibor qaratsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son “O‘smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etganini tushunib yetamiz.

Qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida prinsipial yangi “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseylari tashkil etildi.

“Temurbeklar maktabi”ga umumta‘lim va ixtisoslashtirilgan maktab-internat maktablarining 9-sinfini tamomlagan o‘quvchilarning qabul qilinishi zamirida doston qahramonlarining o‘n to‘rtga kirguncha ish-hunar, kasb-kamolot o‘rganishi, undan so‘ng esa harbiy ish bilan mashg‘ul bo‘lish tartibi yotgani dalillanadi.

Ikkinchi bobning 2-fasli “**Dostonlarda jangovar harakatlar va jang motivi**” deb nomlanib, jangda bosh qahramon qo‘shinga ilhom bag‘ishlab, namuna ko‘rsatishi, askar psixologiyasini muvozanat “Devonu lug‘ati-t-turk”, “Qutadg‘u bilig” hamda Navoiy asarlari qiyosida tahlil qilinadi. Shuningdek, dostonlarda doimiy ravishda uchraydigan “epik qolip”lar tahlilga tortiladi.

Jang motivi, shubhasiz, har qanday dostonning kulminatsion fabulalarini tashkil etadi. Chunki ayovsiz janglarda qahramonlarning ichki dunyosi, jangovar salohiyati, vatanparvarligi bor bo‘y-basti bilan yuzaga chiqadi. Jangda bosh qahramon qo‘shinga ilhom bag‘ishlaydi, namuna ko‘rsatadi, askarlarning psixologiyasini muvozanatga solib turadi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”da ham o‘tkir pafosli jangnoma she‘rlar tasnifi o‘ziga xos tarzda yoritilganki, she‘riy parchalardagi jang manzaralari, shiddatli hujum, alplar to‘qnashuvi, qilichbozlik va nayzabozliklar boy tariximizdan hikoya qiladi.

Professor Fitrat “Devon”dagi jang tasvirlariga alohida e‘tibor qaratar ekan, o‘z kitobida ularni alohida mavzu sifatida umumlashtiradi.

Qoni oqib yushuldi

Qabi qamug‘ tishildi

Uluk bilan qo‘shuldi

Tug‘mish kuni ush botar. (“Devonu lug‘ati-t-turk”. 39-b.).

²² Алибек билан Болибек / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жылдик. Еттинчи жилд. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 311.

²³ Кунтуғмиш. Достон. Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б. 133.

²⁴ Равшан. Достон. Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли. – Тошкент: Шарк, 2011. – Б. 347.

Ma'nosi: Qoni qaytib oqti, qon to'la bir qopg'a o'xshag'an tani butunlay teshildi, Uning tutqan quyoshi shu topda botmoqda, El emdi o'luklarga qutulg'an!

Shuningdek, qo'shinning jangovar musiqa sadolari ostida yurishi, harbiy cholg'ular bilan jihozlangan maxsus guruhlar ritm asosida harakatlanishi ("Yusuf va Ahmad" variantida: "Sarboz urishadi karnay nahriga..." (Yusuf va Ahmad. 225-b.) manzarasi berilsa, "Alpomish" dostonida: "O'zbeklar ustiga lashkar qiladi, Namoyishga karnay-surnay qo'yadi..." (Alpomish. 126-b.), jangovar sahnalardagi qahramon holati, "epik qolip"larning doston matnlariga ko'chishi, jangchilar doim jangovar ruhni qo'zg'atuvchi kuchli chorlovlardan ilhom ola bilishi, botirlarning yakkama-yakka olishuvlaridagi xarakter sifatlari borasida so'z yuritiladi.

Bobning 3-fasli **"Dostonlarda jang taktikasi tasviri, harbiy terminlar tadqiqi"** deb ataladi.

